



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

**O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASIDA
ASOSIY KAPITALGA
INVESTITSIYALAR**



2024- YIL YANVAR – MART
(dastlabki ma’lumot)


Asosiy kapitalga investitsiyalar

2024- yilning yanvar-mart oylarida jami 107,1 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 174,5 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 75,9% yoki 81,3 trln. so'm investitsiyalar jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 24,1% yoki 25,8 trln. so'm moliyalashtirildi.


Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 7,6 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 99,5 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi, trln. so'm



So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli uch martaga ko'payib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.


Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi, % da




So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, 2020-yilda 104,6% ga yetgan, 2021- yilda bir oz pasayib 97,8% ni tashkil etgan, 2022- yilda ko'payib – 115,2% kuzatildi, hozirgi davrgacha yana o'sish tendensiyasiga ega bo'lib – 174,5 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar, % da




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

O'zbekiston Respublikasida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar, % da



Yillar kesimida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari, % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar va o'sish sur'atlari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 258,0 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

2024-yilning yanvar-mart oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 18,8 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,6 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,5 % i yoki 6,9 trln. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 33,3 trln. so'mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 10,1 % punktga ko'payib, 31,1 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 5,2 trln. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,8% ini tashkil etdi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 5,2 trln. so'm (4,8%), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 35,3 trln. so'm (33,0%), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 0,4 trln. so'm (0,4%), Respublika budjeti 1,7 trln. so'm (1,6%), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 0,2 trln. so'm (0,2 %) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi



Andijon viloyati




Buxoro viloyati



Jizzax viloyati







Qashqadaryo viloyati




Navoiy viloyati




Namangan viloyati



Samarqand viloyati




Surxondaryo viloyati



Sirdaryo viloyati



Toshkent viloyati




Farg'ona viloyati



Xorazm viloyati





Toshkent shahri




Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'iy nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 54,5 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 50,9 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 42,7 trln. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 39,9 %) va boshqa xarajatlarga 9,8 trln. so'm (9,2 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Xorazm viloyatida kuzatildi – 60,0 % yoki 1,5 trln. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Sirdaryo viloyatida kuzatilib, 60,9 % ni yoki 1,7 trln. so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da




- Qurilish-montaj ishlari
- Mashina, uskuna, inventar
- Boshqa xarajatlar

Joriy hisobot davrida yangi qurilishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 66,5 trln. so'mga yetdi hamda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 62,1 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 25,5 trln. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 23,8 % ini tashkil etdi. Qolgan 14,1 %, ya'ni 15,1 trln. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan % da



- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya
- Boshqa yoʻnalishlar

Statistik tahlilni oʻtkazish maqsadida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda: qoʻyilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari boʻyicha shakllanadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Jami investitsiyalar hajmidagi ulushi

32,3 %

Ishlab chiqarish sanoati

34,6
trln. so'm

13,9 %

Elektr, gaz bilan ta'minlash

14,8
trln. so'm

13,8 %

Tog'-kon sanoati

14,8
trln. so'm

7,4 %

Qishloq xo'jaligi

7,9
trln. so'm

7,0 %

Turar-joy qurilishi

7,5
trln. so'm

3,6 %

Qurilish

3,8 trln. so'm

2,2 %

Sog'liqni saqlash

2,3 trln. so'm

1,9 %

Axborot va aloqa

2,0 trln. so'm

1,2 %

Ta'lim

1,3 trln. so'm

16,7 %

Boshqa faoliyat turlari

18,1 trln. so'm


Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar
31,1

Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
33,0



O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar
4,8

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 33,3 trln, so'mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 258,0 % ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 5,2 trln, so'mni yoki, 2023-yilning mos davriga nisbatan 237,3 % ni tashkil etdi

Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 35,3 trln, so'mni yoki, 2023-yilga nisbatan 290,7 % ni tashkil etdi



Ulushi
54,3 %

Ulushi
45,7 %

39,3 trln. so'm
Xorijiy investitsiyalar

34,5 trln. so'm
Xorijiy kreditlar



Yuqori ulushga ega 8 ta investor-mamlakat bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, jamiga nisbatan % da




Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
O'zbekiston Respublikasi	33 280,7	5 186,8	35 299,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	401,9	137,8	2 651,1
Andijon	2 405,8	119,7	1 440,7
Buxoro	4 810,8	339,6	3 515,7
Jizzax	2 301,5	64,2	1 393,8
Qashqadaryo	2 558,6	486,7	4 059,2
Navoiy	2 706,8	806,2	4 090,6
Namangan	2 611,7	196,2	4 234,2
Samarqand	1 317,8	150,4	3 101,1
Surxondaryo	2 720,2	402,4	1 611,8
Sirdaryo	1 177,6	18,4	841,1
Toshkent	4 055,8	272,5	4 331,6
Farg'ona	1 825,8	21,6	882,6
Xorazm	210,3	83,8	1 295,6
Toshkent sh.	4 176,2	2 087,3	1 850,4

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar – ustav kapitalda 10 foizdan kam bo'lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo'yilmalaridir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'ycha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi




Asosiy kapitalga investitsiyalar **iqtisodiy faoliyat turlari** bo'ycha amaldagi faoliyat turlari tasniflagichi IFUT-2 ga asosan taqsimlanadi.

2024-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida qayta ishlash sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o'zlashtirilib, 27,5 trln. so'mni yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 37,3% ini tashkil etdi.

Elektr va gaz bilan ta'minlash faoliyat turida bu ko'rsatkich 14,1 trln. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 19,1% ini qayd etdi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish



Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylardan ming kv.m	Suv tarmogʻi, km	Gaz tarmogʻi, km
Oʻzbekiston Respublikasi	2 668,3	1 811,3	119,7	4,1
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	141,5	89,5	10,1	-
Andijon	123,1	78,5	-	-
Buxoro	282,8	191,4	-	-
Jizzax	124,2	61,5	26,7	4,1
Qashqadaryo	201,3	116,2	-	-
Navoiy	111,6	98,3	-	-
Namangan	229,0	151,3	-	-
Samarqand	59,0	54,3	-	-
Surxondaryo	280,3	241,7	-	-
Sirdaryo	30,3	8,8	-	-
Toshkent	424,6	319,0	-	-
Fargʻona	305,7	212,4	1,3	-
Xorazm	212,2	188,4	76,6	-
Toshkent sh.	142,7	99,8	5,0	-

Investitsiyalar va qurilish statistikasi

boshqarmasi

Tel. 71 203-80-00 (1161)